

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING EHTIYOJ, RESURS VA MABLAG' HAQIDAGI TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich

NamDPI "Boshlang'ich ta'lim innovatsiyalari" kafedrasi o'qituvchisi

Email: abdurasulmirzaakbarov95@gmail.com

Hikmatova Iroda Nizomjon qizi

Namangan Davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Email: irodahikmatova727@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ehtiyoj, resurs va mablag' tushunchalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tushunchalarni erta yoshdan boshlab o'rgatishning ahamiyati, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar, o'yinlar va interfaol usullarning samaradorligi ko'rib chiqiladi. Maqolada ta'lim jarayonida resurslardan oqilona foydalanish, ehtiyojlarni to'g'ri anglash va mablag'ni tejash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan. Natijada, boshlang'ich ta'lim bosqichida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning muhim omillari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy savodxonlik, bozor iqtisodiyoti, ehtiyoj, resurs, mablag', interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, pulni tejash va sarflash, oilaviy budjet, rol o'yinlar, didaktik o'yinlar, loyihaviy faoliyat, iqtisodiy xulq-atvor elementlari, moddiy resurslar, mablag'ni boshqarish ko'nikmalari, iqtisodiy hisob-kitoblar.

FOUNDATIONS FOR FORMING PRIMARY SCHOOL STUDENTS' UNDERSTANDING OF NEEDS, RESOURCES, AND MONEY

Annotation: This article explores the theoretical and practical foundations of developing primary school students' understanding of needs, resources, and financial means. The study analyzes the importance of introducing basic economic concepts at an early age, taking into account children's age-specific and psychological characteristics, as well as appropriate pedagogical approaches. Furthermore, the effectiveness of methods, games, and interactive techniques aimed at fostering economic thinking in students is examined. The article also provides recommendations for developing skills such as rational use of resources, proper understanding of needs, and saving financial means within the educational process. As a result, key factors contributing to the development of economic literacy at the primary education level are identified.

Keywords: Economic literacy, market economy, needs, resources, financial means, interactive methods, problem-based situations, saving and spending money, family budget, role-playing games, didactic games, project-based activities, elements of economic behavior, material resources, financial management skills, economic calculations.

ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ О ПОТРЕБНОСТЯХ, РЕСУРСАХ И ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВАХ

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы формирования у учащихся начальных классов представлений о потребностях, ресурсах и денежных средствах. В ходе исследования анализируется значимость раннего освоения экономических понятий с учетом возрастных и психологических особенностей детей, а также соответствующих педагогических подходов. Кроме того, изучается эффективность методов, игр и интерактивных технологий, направленных на развитие экономического мышления у учащихся. В статье также представлены рекомендации по формированию навыков рационального использования ресурсов, правильного понимания потребностей и бережного отношения к денежным средствам в образовательном процессе. В результате определяются ключевые факторы развития экономической грамотности на начальном этапе обучения.

Ключевые слова: Экономическая грамотность, рыночная экономика, потребности, ресурсы, денежные средства, интерактивные методы, проблемные ситуации, экономия и расходование денег, семейный бюджет, ролевые игры, дидактические игры, проектная деятельность, элементы экономического поведения, материальные ресурсы, навыки управления финансами, экономические расчёты.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy savodxonlik shaxsning muhim kompetensiyalaridan biri sifatida qaralmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ta'lim sohasidagi islohotlar ijrosi va kelgusidagi vazifalarga bag'ishlangan 2025-yilning 9-sentabrdagi videoselektor yig'ilishida "Iqtisodiyot rivojlanishi, yurtimiz va farzandlarimiz kelajagi faqat va faqat ta'lim va muallimga bog'liq. Sizlar bilan ish boshlagan birinchi kundan aytaman: ta'lim, ta'lim, ta'lim, muallim, muallim, muallim" degan fikrlari globallashuv jarayonlari jadallashgan, bozor iqtisodiyoti tamoyillari chuqurlashib borayotgan bugungi kunda yosh avlodni iqtisodiy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1]. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy tushunchalarni maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq shakllantirish muhim pedagogik vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ehtiyoj, resurs va mablag' tushunchalari iqtisodiy tafakkurning asosiy kategoriyalari bo'lib, ular orqali bolalarda real hayotiy vaziyatlarni anglash, ongli tanlov qilish va sodda iqtisodiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Ehtiyoj tushunchasi bolalarda inson

hayotida zarur bo'lgan moddiy va nomoddiy omillarni farqlashni o'rgatsa, resurslar haqidagi tasavvurlar mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish zaruratini anglashga yordam beradi. Mablag' tushunchasi esa iqtisodiy faoliyatning amaliy jihatini, ya'ni pulni tejash va sarflash madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy ta'lim metodikasiga oid adabiyotlarda boshlang'ich ta'lim bosqichida interfaol yondashuvlar ustuvor ahamiyatga ega ekani qayd etiladi. Jumladan, o'yinlar, didaktik o'yinlar, muammoli vaziyatlar va loyihaviy faoliyat orqali o'quvchilarda mablag'ni to'g'ri taqsimlash, tejash va oqilona sarflash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligi asoslab berilgan. Ba'zi tadqiqotchilar esa raqamli ta'lim vositalari va multimediali resurslardan foydalanish iqtisodiy tushunchalarni yanada tushunarli va qiziqarli qilishini ta'kidlaydilar. Iqtisodiy ta'limga oid tadqiqotlarda bolalarda iqtisodiy xulq-atvor elementlari erta yoshdan shakllanishi qayd etilgan. Masalan, P. Webley va M. Schug tadqiqotlarida bolalar pul, tejash va xarajat tushunchalarini asta-sekin anglab borishi ko'rsatib berilgan [2][3]. Shuningdek, A. Lusardi tadqiqotlari moliyaviy savodxonlikni erta yoshdan shakllantirish zarurligini asoslaydi [4]. Milliy pedagogik manbalarda ham boshlang'ich ta'limda iqtisodiy tushunchalarni o'rgatish muhimligi ta'kidlanadi. Jumladan, boshlang'ich ta'lim davlat standartlarida o'quvchilarda iqtisodiy tasavvurlarni shakllantirish zarurligi qayd etilgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYSI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, ehtiyoj, resurs va mablag' kabi kategoriyalarni o'quvchilarga erta yoshdan boshlab o'rgatish ularning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi. Iqtisodiy tarbiya nazariyasiga oid ilmiy manbalarda qayd etilishicha, bolalarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirish ularning yosh xususiyatlari va bilish faoliyatiga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Pedagog olimlar ta'kidlashicha, boshlang'ich sinf o'quvchilari konkret tafakkur bosqichida bo'lganligi sababli, ular abstrakt iqtisodiy

tushunchalarni bevosita hayotiy misollar orqali yaxshiroq o'zlashtiradi. Shu bois ehtiyoj va resurs tushunchalarini o'rgatishda kundalik hayotga oid vaziyatlar, oilaviy budjet, o'yinchoqlar va maktab jihozlari misolida tushuntirish samarali natija beradi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari abstrakt tushunchalarni konkret misollar, o'yin faoliyati va kundalik hayot bilan bog'liq vaziyatlar orqali samaraliroq o'zlashtiradi. Shu sababli, ehtiyoj, resurs va mablag' kabi tushunchalarni o'rgatishda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar va vizual vositalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bu yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilimlarini, balki ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ehtiyoj, resurs va mablag' haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari hamda samarali metodlar va vositalar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu jarayonning o'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini oshirishdagi o'рни va ahamiyati yoritib beriladi.

Psixologik tadqiqotlarda esa bolalarda iqtisodiy xulq-atvor elementlari (masalan, tejash, tanlash, taqsimlash) 6–10 yosh davridayoq shakllana boshlashi aniqlangan. Bu davrda bolalar ehtiyojlarni ustuvorlik asosida ajratish, cheklangan resurslardan foydalanish zaruratini anglash va oddiy iqtisodiy qarorlar qabul qilishga qodir bo'lib boradi. Shuningdek, ilmiy manbalarda bolalarning iqtisodiy bilimlari ko'proq ijtimoiy muhit-oila, maktab va tengdoshlar ta'sirida shakllanishi ta'kidlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ehtiyoj, resurs va mablag' tushunchalarini shakllantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Didaktik o'yinlar, guruhli ishlar va muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilar real hayotiy holatlarni modellashtiradi. Masalan, "Do'kon" o'yini orqali bolalar mablag'ni taqsimlash va tanlov qilishni o'rganadi.
2. Rasmlar, diagrammalar, videolar va real predmetlar yordamida resurslar va ehtiyojlar tushuntiriladi. Bu usul bolalarning tushunishini osonlashtiradi.
3. O'quvchilar kichik loyihalar orqali oilaviy byudjetni rejalashtirish yoki xarajatlarni hisoblash kabi amaliy mashg'ulotlarni bajaradi.
4. Zamonaviy ta'lim platformalari va multimediali vositalar iqtisodiy tushunchalarni qiziqarli shaklda o'rgatish imkonini beradi.

Shuningdek, o'qitish jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim:

- a) yosh xususiyatlarini hisobga olish
- b) oddiydan murakkabga tamoyili
- c) hayotiylik va amaliyotga yo'naltirilganlik
- d) uzluksizlik va tizimlilik

NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ehtiyoj, resurs va mablag' haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va metodlar qo'llanilganda ijobiy natijalarga erishish mumkinligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida interfaol metodlar, amaliy mashg'ulotlar va hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning iqtisodiy bilimlarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilgani kuzatildi.

Birinchidan, o'quvchilarda ehtiyoj tushunchasini anglash darajasi oshdi. Ular kundalik hayotdagi ehtiyojlarni (oziq-ovqat, kiyim-kechak, o'yinchoqlar va boshqalar) farqlash, ularni zaruriy va ikkilamchi ehtiyojlarga ajratish ko'nikmasiga ega bo'ldilar. Bu esa o'quvchilarda ongli tanlov qilishning dastlabki asoslarini shakllantirdi.

Ikkinchidan, resurslar haqidagi tasavvurlar rivojlandi. O'quvchilar resurslarning cheklanganligini tushunib, ulardan oqilona foydalanish zarurligini anglay boshladilar. Xususan, vaqt, pul va moddiy resurslarni tejashga nisbatan ijobiy munosabat shakllandi.

Uchinchidan, mablag'ni boshqarish ko'nikmalari shakllandi. O'quvchilar oddiy iqtisodiy hisob-kitoblarni bajarish, xarajatlarni rejalashtirish va mablag'ni to'g'ri taqsimlashni o'rgandilar. Ayrim hollarda ular o'z mablag'larini tejash va maqsadli sarflashga intilishlarini namoyon etdilar.

To'rtinchidan, qo'llanilgan metodlar natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlari rivojlandi. Didaktik o'yinlar va muammoli topshiriqlar orqali ular turli iqtisodiy vaziyatlarda qaror qabul qilishni o'rganishdi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida ehtiyoj, resurs va mablag' haqidagi tasavvurlarni shakllantirish ularning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Ushbu tushunchalar o'quvchilarning kundalik hayotiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularni erta yoshdan boshlab o'rgatish kelajakda ongli iqtisodiy xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, interfaol metodlar, amaliy mashg'ulotlar va hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning iqtisodiy bilimlarini samarali o'zlashtirishiga yordam beradi. Ayniqsa, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va loyihaviy faoliyat orqali o'quvchilarda ehtiyojlarni farqlash, resurslardan oqilona foydalanish va mablag'ni to'g'ri taqsimlash ko'nikmalari shakllanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim tizimida iqtisodiy tushunchalarni o'rgatishga tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Bu borada o'quv dasturlarini boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish hamda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ehtiyoj, resurs va mablag' haqidagi tasavvurlarni shakllantirish nafaqat ularning iqtisodiy bilimlarini oshiradi, balki mustaqil fikrlash, ongli tanlov qilish va mas'uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli mazkur yo'nalishdagi ilmiy-amaliy ishlarni yanada rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ta'lim sohasidagi islohotlar ijrosi va kelgusidagi vazifalarga bag'ishlangan 2025-yilning 9-sentabrdagi videoselektor yig'ilishidagi nutqidan.
2. P.Webley (2005). *Children and Money*.
3. M.Schug (1985). *Economic Reasoning in Children*.
4. A.Lusardi (2019). *Financial Literacy and Education*.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim Vazirligi. (2021). *Davlat ta'lim standarti*.
6. Developing logical thinking through teaching basic quantities in the primary grade (Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich & Azamjonova Farangiz Akmaljon qizi, Trans.). (2025). *Partner Conferences of the International Scientific Journal Research Focus*, 1(1), 203-206. <https://refocus-conferences.uz/index.php/PCISJRF/article/view/308>

7. Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. (2025). Pedagogical and psychological foundations of teaching students based on national content. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17228152>
8. Mirzaakbarovich M.A. Ways to teach future teachers to think logically through Japanese puzzles. (2024). Conferencea, 12-16. <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/3120>
9. Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. The relevance of educating primary education students based on national content. (2025). The Conference Hub, 8-12. <https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/169>
10. Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. The relevance of educating primary education students based on national content. (2025). The Conference Hub, 38 -43. <https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/170>
11. The importance of the methodology of teaching algebraic materials (Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich, Qambaraliyeva Maftuna Hamidullo qizi, Trans.). (2025). *Partner Conferences of the International Scientific Journal Research Focus*, 1(1), 871-875. <https://refocus-conferences.uz/index.php/PCISJRF/article/view/534>
12. The importance of teaching multiplication and division methods (Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich & Yusupova Aziza Abdulaziz kizi, Trans.). (2025). *Partner Conferences of the International Scientific Journal Research Focus*, 1(1), 54-59. <https://refocus-conferences.uz/index.php/PCISJRF/article/view/261>
13. Mirzaakbarovich.M.A. Boshlang'ich sinf matematika darslarida grafiklar, diagrammalar va jadvallarni o'rgatish metodikasining dolzarbligi //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2024. – T. 2. – №. 54. – C. 106-111.